



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



No7
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiyaga fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 102 sahifa,
1-iyul, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Umarova H. O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Umarova H.O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD)

Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Umarova H. O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G' B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali Oliy attestatsiya komissiyasining 26-08-2024-yildagi №11-05-4381/01-Kengash tavsiyasiga ko’ra, pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo’yicha ekspert kengashi tavsiyasi (29-10-2024-y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (30-10-2024-y., №10/24); OAK Rayosatining qarori (31-10-2024-y., №363/5).

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo’yicha
ro’yxatdan o’tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish.....	16
<i>Nazarov Odil Omanqulovich</i>	
"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni	20
<i>Abirova Umida Nazarovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati	23
<i>Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li</i>	
Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari	27
<i>Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda ta'limiy o'yinlarning ahamiyati .	31
<i>Salimova Dilmira Farxodovna</i>	
Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar	34
<i>Rajabov Asliddin Xolmirzayevich</i>	
Favqulodda vaziyatlar yo'nalishi ta'limida muloqotning ahamiyati.....	37
<i>Boltayev Baxtiyor Yunusovich</i>	
Biologiya ta'limi va raqamli texnologiyalar	41
<i>E. Po'latova</i>	
Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati	44
<i>Egamova Ravshanoy Surobjonovna</i>	
O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin?	
Innovatsion ta'lim yondashuvlari va samarali strategiyalar.....	48
<i>G'ayniddinov Shayxislom Tolibjon o'g'li</i>	
Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi	53
<i>Isayeva Mushtariy Alisher qizi</i>	
Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons	56
<i>Mavlonova Dildora Shuxrat qizi</i>	
Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish	60
<i>Nomozova Dilobar Suyun qizi</i>	
Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirish: bosqichlar va tamoyillar.....	65
<i>Norboyeva Moxigul Shavkat qizi</i>	
3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories	68
<i>Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li</i>	
Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction: a Review of Recent Literature	73
<i>Ruzieva Maftuna</i>	
Onlayn va gibrid ta'lim sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga qiziqishni oshirishning nazariy asoslari.....	78
<i>Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna</i>	
Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi (9-sinflar uchun "metallar va ularning umumiy xususiyatlari" mavzusida)	81
<i>Sharipova Hakima Shavkatovna</i>	
Metacognition and Self-Regulated Learning	85
<i>Turayeva Nazira Ibragimovna</i>	
Методические возможности совершенствования обучения научной письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода	88
<i>Меденцева Наталья Петровна</i>	
Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari	93
<i>Jonibekov Jasur Jonibekovich</i>	
O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi.....	98
<i>Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi</i>	



TRANSFORMATSION JARAYONLARDA TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI

Jonibekov Jasur Jonibekovich

Buxoro davlat tibbiyot universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan strategiyalarni transformatsiya jarayonlari sharoitida tahlil qilish masalalari yoritilgan. Global va mahalliy miqyosdagi ta'lim tizimida yuz berayotgan o'zgarishlar, raqamli texnologiyalarni joriy etish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish kabi omillar tibbiyot ta'limi muassasalari oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Shu nuqtai nazardan, maqolada innovatsion ta'lim modellari, kadrlar salohiyatini rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish hamda bozor talablariga mos ta'lim dasturlarini yaratish strategiyalari tahlil qilingan. Shuningdek, tibbiyot ta'limi sohasida milliy va xalqaro tajribalar asosida institutsional barqarorlikni ta'minlash, reyting ko'rsatkichlarini yaxshilash va talabalarning global mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan. Ushbu tadqiqot natijalari tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida samarali transformatsiya jarayonlarini amalga oshirishda muhim amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: transformatsiya, tibbiyot ta'limi, raqobatbardoshlik, strategiya, innovatsiya, xalqaro tajriba.

Abstract: This article analyzes strategies aimed at enhancing the competitiveness of medical higher education institutions in the context of transformational processes. Changes in the global and national education systems, the integration of digital technologies, and efforts to improve the quality and efficiency of education are placing new demands on medical universities. In this regard, the article examines strategies for implementing innovative educational models, developing human resources, strengthening international cooperation, and creating market-oriented academic programs. Additionally, based on national and international experience, proposals are made to ensure institutional sustainability, improve ranking indicators, and enhance students' competitiveness in the global labor market. The results of this research are of significant practical value for the effective implementation of transformational processes in medical higher education institutions.

Key words: transformation, medical education, competitiveness, strategy, innovation, international experience.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы анализа стратегий повышения конкурентоспособности медицинских высших учебных заведений в условиях трансформационных процессов. Изменения, происходящие в глобальной и национальной системе образования, внедрение цифровых технологий, повышение качества и эффективности обучения ставят перед медицинскими вузами новые задачи. С этой точки зрения в статье проанализированы стратегии внедрения инновационных моделей обучения, развития кадрового потенциала, укрепления международного сотрудничества и создания образовательных программ, соответствующих требованиям рынка. Кроме того, на основе национального и международного опыта предложены меры по обеспечению институциональной устойчивости, улучшению рейтинговых показателей и повышению конкурентоспособности студентов на глобальном рынке труда. Полученные результаты имеют важное практическое значение для эффективной реализации трансформационных процессов в медицинских вузах.

Ключевые слова: трансформация, медицинское образование, конкурентоспособность, стратегия, инновации, международный опыт.

KIRISH

Globalashuv va ta'limni xalqarolashtirish sharoitida zamonaviy oliy ta'lim muassasasining faoliyatining o'ziga xosligini hisobga olib, uning innovatsion faolligini maqsadli ravishda rivojlantirishga hamda aniq natijalarga erishishga bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy zaruratdan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasasining strategik maqsadlarini inobatga olgan holda uning transformatsiyasini amalga oshirish bo'yicha tadqiqotlarni yanada dolzarblashtiradi. Shuning asosida oliy ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, ilm-fan, tadqiqot va ta'limni birlashtiruvchi tadqiqot universitetlariga transformatsiya qilish bosqichi boshlandi.

Jumladan, davlatimiz rahbarining 2024-yil 22-yanvardagi “Sog’liqni saqlash sohasida islohotlarni chuqurlashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-38-son¹, 2025-yil 22-apreldagi “Tibbiyot sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-149-son qarorlari² hamda 2025-yil 7-may kuni tibbiy ta’limni takomillashtirish bo’yicha ustuvor vazifalar yuzasidan o’tkazilgan yig’ilishda mamlakatimizda tibbiyot sohasi uchun oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, aholi salomatligini muhofaza qilishning dolzarb muammolari bo’yicha kompleks ilmiy tadqiqotlar olib borish, oliy ta’lim tashkilotlarining mavjud resurslaridan samarali foydalanish, tibbiy ta’lim tizimida kadrlar tayyorlashni samarali tashkil etish hamda ta’lim sifatini oshirish kabi muhim masalalar belgilandi.

Hozirgi kunda oliy ta’lim tizimida xalqarolashtirish, globalashuv va mintaqalashuv kabi muhim yo’nalishlar farqlanmoqda. Bu o’z navbatida kadrlar tayyorlash, ta’lim xizmatlarini ko’rsatish bozorida raqobatbardoshlikni ta’minlash, innovatsion iqtisodiyot ehtiyojlariga mos tadqiqotlar portfelini shakllantirish, shu bilan birga faoliyat sohasi hamda hududiy omillarning o’ziga xosligidan kelib chiqqan holda oliy ta’lim muassasasini mintaqaviy markazlarga aylantirish omili sifatida qaralmoqda. Mazkur transformatsion jarayonlar zamonaviy universitet tushunchasiga nisbatan ham yangicha yondashuv va talablarni belgilamoqda. Ya’ni bugungi kunda zamonaviy universitetlarning:

- global, ochiq-dinamik rivojlanuvchi maydon sifatida resurslar energiyasini ta’minlovchi ilmiy tadqiqotlar;
- biznes-jamiyat talablariga javob beruvchi, yangi kasb, yangi bilim va mutaxassisliklarni taklif etuvchi farsayt kompetensiyalarni belgilash;
- mamlakatning innovatsion rivojlanishida drayver vazifasini o’tash;
- intellektual tijoratlashtirish mexanizmlarini amaliyotga joriy etish;
- yangi texnologik o’zgarishlar bo’yicha o’z sohasida liderlik qilish kabi missiyalari belgilanmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Dastlab, XIX asrning oxirida universitetlarning ta’lim modeli birinchi ilmiy inqilob natijasida ilm va ta’limni birlashtiruvchi tadqiqot universitetlariga transformatsiya qilish jarayoni ro’y berdi.

Mazkur transformatsion jarayonlarda Amerika universitetlari an’analari namoyondalari Dj. Xopkins, R. Xatchins va K. Kerr universitetlarning “xizmat ko’rsatish” vazifasiga ustuvorlik berib, universitet korporatsiyasining ijtimoiy jarayonlar bilan o’zaro hamkorlik mexanizmlarini tadqiq etadilar.

Tadqiqotchi R.Barnett universitetlar transformatsiyasining quyidagi mezonlarini ajratib ko’rsatadi:

- predmetlararo vertikal va gorizontal integratsiyani ta’minlash, ya’ni tanqidiy tahlillar asosida ta’lim mazmunini ijtimoiy-iqtisodiy va mehnat bozori talablariga moslashtirish;
- jamoaviy-kooperativ tahlil, rivojlanish strategiyasini va yangi istiqbollar yo’nalishlarini belgilash;
- ta’lim muassasasini yagona kampus sifatida har tomonlama barqaror rivojlanish maqsadlarini belgilash;
- boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish va demokratlashtirish;
- ta’lim sifatini ta’minlash va baholash jarayonlariga ish beruvchilar, ijtimoiy institutlar, jamoatchilik, ota-onalar, talabalar, ishlab chiqarish korxonalari hamda tarmoq va hududiy oliy ta’lim muassasalari kabi hamkorlarni keng jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish;
- ijtimoiy kommunikatsiya va ekotizimning shakllanishi.

Tadqiqotchi R.Fatxutdinovning fikriga ko’ra, universitetning raqobatbardoshligi – bu uning quyidagi xizmatlarni amalga oshirish qobiliyatidir:

- muayyan tashqi yoki ichki mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash;
- o’z sohasida raqobatbardosh yangiliklar hamda xizmatlarni ishlab chiqish;
- o’z faoliyatining barcha sohalarida samarali tiklanish hamda transformatsiya siyosatini yuritish.

Oliy ta’limda raqobat va raqobatbardoshlik tushunchalariga to’xtalar ekan, tadqiqotchilar Mahmood, Z. W. Iftikhar, D. M. Vistro va H. I. Tarilar [6] oliy ta’lim muassasalaridagi raqobatbardoshlikni ichki va tashqi raqobat misolida tahlil etadi. Mazkur jarayonda ichki raqobat – universitetning kadrlar salohiyati, talabalar, professor-o’qituvchilar, moddiy-texnik baza va boshqaruv tizimi kabi komponentlar bilan bog’liq holat; tashqi

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-6775377>

² <https://lex.uz/uz/docs/-7491792>



raqobat esa mamlakat miqyosidagi va xalqaro reytinglardagi o'rni, global assotsiatsiyalar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik darajasi hamda ta'lim xizmatlari eksport salohiyati (transnational higher education, TNHE) kabi indikatorlar bilan o'lchanadi.

Darhaqiqat, fikrimizcha, oliy ta'lim muassasasidagi ichki raqobat universitetlar arxitekturasini, ya'ni struktur-asiga sezilarli ta'sir etadi: talabalar o'rinlar uchun raqobat qilishi oliy ta'lim muassasalarini talabalar uchun faol ravishda raqobatga o'tishga majbur qildi. Ushbu o'zgarish talabalarning muhim intellektual resurs va manfaatdor tomon sifatida tobora ko'proq ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Globalashuv va ta'limni xalqarolashtirish sharoitida zamonaviy oliy ta'lim muassasasining faoliyatining o'ziga xosligini hisobga olib, uning innovatsion faolligini maqsadli ravishda rivojlantirish va aniq natijalarga erishishga bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy zaruratdan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasasining strategik maqsadlarini inobatga olgan holda uning transformatsiyasini amalga oshirish bo'yicha tadqiqotlarni yanada dolzarblashtiradi. Shu asosda oliy ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va ilm-fan, tadqiqot hamda ta'limni birlashtiruvchi tadqiqot universitetlariga transformatsiya qilish bosqichi boshlandi.

Oliy ta'lim muassasalari transformatsiyasi haqida so'z borganda, tadqiqotchi uning ijtimoiy-pedagogik zaruratini quyidagi omillar bilan bog'laydi: oliy ta'lim olishni istovchi talabalar sonining ortishi, globalashuv, Bolonya jarayonlari, fanlararo tadqiqotlarning rivojlanishi, ilg'or ilmiy-tadqiqotlar hajmining ortishi, ixtisoslashtirilgan ilmiy-tadqiqot institutlarini yaratish, universitetlarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi muhim bo'g'in sifatidagi mavqeyining oshishi, ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlik, tadbirkorlik va tijoratlashtirish faoliyatining kengayishi.

Hozirgi sharoit dunyo mamlakatlarining rivojlanishini baholashda iqtisodiyot fani milliy raqobatbardoshlik konsepsiyasini etakchi o'ringa olib chiqdi. So'nggi yillarda ko'plab davlatlarda davlat organlarining iqtisodiyotni rivojlantirishdagi bebaho roli tufayli oliy ta'lim tizimi va ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirish muammosiga e'tibor kuchaymoqda. Shu nuqtai nazardan, jamiyat va iqtisodiyotning rivojlanishi, raqamlashtirish jarayonlari, xalqaro tajriba hamda ta'lim xizmatlari sohasining diversifikatsiyasi natijasida universitetlar funksiyalarining rivojlanish jarayonlari ham ma'lum tendensiyalarga ega bo'lib, vaqt o'tishi bilan o'zgarib va takomillashib bormoqda.

Ta'lim tizimi barcha darajalarining barqaror rivojlanishi mamlakat va jamiyat taraqqiyotining muhim va ajralmas sharti, oliy ta'limning har tomonlama rivojlanishi esa malakali ishlab chiqarish, texnologik, innovatsion va texnikaviy yuksalishga intilayotgan davlatlarning iqtisodiy o'sishi uchun zarur vositadir. Bu holat jahon iqtisodiyotida global va integratsion jarayonlarning rivojlanishi kontekstida katta ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, xalqaro mehnat taqsimotida muhim o'rin egallash va jahon bozorida mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta'minlamoqchi bo'lgan har bir mamlakat o'zgaruvchan muhitga tez moslasha oladigan, iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirish choralari ta'minlaydigan yuqori malakali mutaxassislariga ega bo'lishi shart.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida ta'lim xizmatlarining mazmuni va tabiati o'zgarishi oliy ta'lim faoliyati va rivojlanishida bozor mexanizmlarining o'sib borishi uchun qulay sharoit yaratadi.

Ma'lumki, "diversifikatsiya" atamasi (lot. diversificatio – o'zgarish, xilma-xillik, taraqqiyot) birinchi marta o'tgan asr o'rtalarida iqtisodiyot sohasida paydo bo'lgan va keyinchalik ta'lim sohasida G'arbiy Yevropada qo'llanila boshlandi. Ilmiy-nazariy manbalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bir qator tadqiqotchilar ta'lim tizimini diversifikatsiyalashga turli tavsiflar bergan. Jumladan, V. V. Bagin diversifikatsiyani jahonda ta'lim tizimini rivojlantirishning zamonaviy davrini tavsiflovchi ijtimoiy-pedagogik hodisalardan biri sifatida inqirozdan chiqish yo'llarini izlash, shaxsga yo'naltirilgan yangi ta'lim paradigmasini shakllantirish, moslashuvchanlik darajasini oshirish, tezda qayta qurilish va jamiyatning o'zgaruvchanligini hisobga olish imkoniyatlarini yaratishi bilan izohlagan.

Fikrimizcha, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlari diversifikatsiyasi – oliy ta'lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tan olinish va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim mexanizm bo'lib, buning uchun respublika oliy ta'lim tizimini xalqaro ta'lim standartlari bilan uyg'unlashtirish, ilg'or xorijiy tajribani chuqur o'rganish va tahlil qilish asosida ta'lim dasturlarini jahon tan olgan xalqaro standartlarga moslashtirish, ta'lim xizmatlari eksportini rivojlantirish bo'yicha xorijiy davlatlar bilan hamkorlikni kengaytirish va ularning me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish, shuningdek o'quv dasturlarini nazariy bilimdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan tizimga bosqichma-bosqich o'tkazish zarur.

Ilmiy-pedagogik tahlillarimiz davomida O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari transformatsiyasining rivojlanish bosqichlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etildi. Ma'lumki, "Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" (2019) qabul qilinishi oliy ta'lim muassasalari transformatsiyasini amalga oshirishda metodologik asos bo'lib xizmat qildi. Jumladan, mazkur konsepsiyada ta'limdagi innovatsion jarayonlar, ilg'or xorijiy tajribalar asosida ta'lim dasturlari, o'qitish texnologiyalari va professor-o'qituvchilarning kasbiy mahoratini

o'shiring hamda oliy ta'lim muassasalarining innovatsion madaniyatini rivojlantirish bo'yicha vazifalar belgilab berildi.

OTM ta'lim tizimi muhim elementi va ta'lim xizmatlari bozori sub'ekti sifatida hozirgi kunda innovatsiyalarni yaratish va amalga oshirish, shuningdek respublikada barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy manbai – fan, texnika, biznes, yuqori texnologiyalar va davlat boshqaruvi sohalarida mutaxassislar tayyorlash faoliyatini olib bormoqda. Shu munosabat bilan OTM innovatsion rivojlanishini tadqiq etish alohida nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarini transformatsiyalash muammosiga oid ilmiy adabiyotlar va xalqaro tajribalarni tahlil etish natijasida quyidagi muhim tendensiyalar va ilmiy yondashuvlar aniqlandi:

- 1. Texnologik transformatsiya va raqamli ta'lim.** Yangi texnologiyalar, xususan, sun'iy intellekt (AI), katta ma'lumotlar (big data) va virtual reallik (VR) tibbiyot ta'limida tub o'zgarishlarga olib kelmoqda. Bu texnologiyalar ta'lim sifatini oshirish, individuallashtirilgan o'quv tajribasini yaratish va klinik ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ta'lim jarayonida multimodal yondashuvlar – ya'ni an'anaviy va raqamli usullarning uyg'unligi – talabalarning tanqidiy fikrlash, innovatsiya, yetakchilik va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.
- 2. Xalqarolashuv va transmilliy ta'lim modellari.** Tibbiyot ta'limida xalqarolashuv jarayonlari orqali transmilliy tibbiyot ta'limi (TME) modeli – global salomatlik muammolarini hal qilishga qaratilgan tizim – yaratilmoqda. So'nggi yillarda "global sog'liqni saqlash" tushunchasi keng yoritilmoqda, chunki dunyo SARS-CoV-2 pandemiyasiga qarshi kurashishda birlashdi. Bu yangilik bo'lmasa-da, global sog'liqni saqlashda yagona standartlarga erishishga bo'lgan qiziqish akademik fan sifatida sezilarli darajada o'sdi. Natijada, tibbiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalarini xalqaro imkoniyatlardan kengroq foydalanishga undamoqda.
- 3. Akademik sog'liq markazlarining (Academic Health Centers – AHC) roli.** Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar tibbiyot ta'limida ham muayyan o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Bu jihatlar – tibbiyot oliy ta'lim muassasalari sonining ko'payishi, mutaxassislar kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, ta'lim va amaliyotni integratsiya qilish hamda ta'lim sifatini oshirish – Akademik sog'liq markazlari (AHC) tomonidan ta'lim, tadqiqot va klinik xizmatlarni birlashtirish orqali amalga oshiriladi. AHC innovatsiya, tadqiqot va ta'limni uyg'unlashtirib, yuqori sifatli sog'liqni saqlash xizmatlarini ta'minlashga qaratilgan.
- 4. Raqamli transformatsiya va uning tibbiyot ta'lim dasturlariga ta'siri.** Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi tibbiyot ta'limi dasturlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Sog'liqni saqlash tizimidagi raqamli transformatsiya jarayonlari – xususan, elektron tibbiyot yozuvlari, telemeditsina, sun'iy intellekt (AI), tibbiy vizualizatsiya, diagnostika, tezkor axborotni qayta ishlash va ma'lumotlar tahlili, klinik qaror qabul qilish tizimlari (CDSS) – tibbiyot ta'limi mazmuni va dasturlarida keng qamrovli o'zgarishlarga ehtiyojni yuzaga keltirmoqda. Shuningdek, sun'iy intellekt va onlayn ta'lim platformalari tibbiyot ta'limi va amaliyotida yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Bu texnologiyalar ta'lim sifatini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va ta'lim xizmatlarini rivojlantirish imkoniyatini yanada kengaytiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqotimiz jarayonida olib borilgan ilmiy-nazariy tahlillar natijasida oliy ta'lim muassasasidagi islohotlar har doim raqobatbardoshlikni rivojlantirishda dinamik o'sish va sifat ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlarga olib kelmasligi, aksincha, bu jarayon davomida uzviylik, xizmatlarning ta'limiy ehtiyojlar va sohaga yo'naltirilganligi, kompetentlik yondashuv va tarmoqlararo integratsiya orqali amalga oshirilgani o'z tasdig'ini topdi. Bu esa o'z navbatida, tibbiyot oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish strukturasi doirasida raqobatbardoshlik imkoniyatlari sohasining (akademik, innovatsiya, ilmiy-tadqiqotchilik, ijtimoiy-iqtisodiy, boshqaruv-marketing, ijtimoiy kolleksiya) faoliyat talablari hamda raqobatbardoshlikni ta'minlovchi indikatorlar va ularga ta'sir etuvchi siyosiy, ijtimoiy, texnologik hamda iqtisodiy omillar bilan integrativ uyg'unligini ta'minlagan holda takomillashtirilishini talab etishini ko'rsatdi.

Mazkur faoliyat bosqichlarini samarali amalga oshirish hamda uning natijadorligini tizimli tahlil qilish va monitoringini olib borish esa jarayondan kutilayotgan raqobatbardoshlik darajasini ichki va tashqi mehnat bozori talablari asosida rivojlanish ko'rsatkichlarini belgilash hamda ularning indikatorlar tizimini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bunday yondashuv, bizning nazarimizda, oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish samaradorligini ta'minlovchi yangi ta'lim strategiyalarini belgilash, ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish asosida innovatsion rivojlanishning samarali yo'llari va shakllarini amaliyotga keng joriy etish hamda o'zgarishlarning miqdoriy va sifat darajasini tahlil qilish va baholashga xizmat qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida: PF-158; 2023 Sep 11.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori. Sog'liqni saqlash sohasida islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida: PQ-38; 2024 Jan 24.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori. Tibbiyot sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida: PQ-149; 2025 Apr 22.
4. Barnett R. Higher education: a critical business. Buckingham: Open University Press; 1997.
5. Fatkhutdinov R. Upravlenie konkurentosposobnost'yu vuza. Vysshee obrazovanie v Rossii. 2006.
6. Mahmood ZW, Iftikhar WM, Vistro DM, Tari HI. An examination of the use of knowledge management/knowledge management systems in achieving and sustaining competitive advantage in higher education institutes: a case study of Asia Pacific University, Malaysia. 2020.
7. World Economic Forum. Accelerating digital transformation for long-term growth [Internet]. Geneva: World Economic Forum; [cited 2024 Jul 8].

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.